
Buvayda tumanida Qishloq xo'jaligi sohasida elektr energiyasini tejoychi texnologiyalarni joriy etish yuzasidan amaliy seminar o'tkazildi

Hozirgi kunda Tumanda yuqori kuchlanishda ishlovchi 168 ta suv nasoslari mavjud bo'lib, mavsum davomida 17 million kv elektr energiyasini sarflaydi. Agarda suv nasoslari elektr energiyasini tejoychi suv nasoslari bilan almashtirilsa 7 million kv elektr energiyasi tejab qolinadi. Bu esa Fermer xo'jaligiga Elektr ta'minoti uchun xarajatlarini teng yarmiga qisqartiradi.

Qo'ng'iroq MMTP hududidagi "Bahtiyor Doniyor" Fermer xo'jaligi o'rnatgan suv nasoslari bunga yaqqol misoldir. Amaliy seminar aynan shu joyda tashkil etilganligi ayni muddao bo'ldi. Seminar ishtirokchilari yuqori kuchlanishda ishlovchi suv nasoslari bilan bir xil hajmda suv chiqarayotgan suv nasosini ko'rib, bunday texnikalarni o'zlarining Fermer xo'jaliklarida ham joriy etishni maqsad qildilar.

2024-08-16 10:23:06